“LAYSA” FE’LINING AMALINI BAJARADIGAN HARFLAR VA ULARNING SHARTLARI BAYONI

Akram Mahmudov
Oriental universiteti Tillar-1 kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi, ORCID 0009-0001-7440-1646
https://doi.org/10.5281/zenodo.20196059

Annotatsiya. *Ushbu maqolada arab tilidagi inkor yuklamalaridan ما (Hijoz lahjasida), لا، لات, إنْ ning ayrim holatlarda “ليس” fe’li kabi amal qilishi yoritiladi. Har bir yuklamaning ishlashi uchun qo‘yilgan shartlar, i‘robga ta’siri, “إلا” bilan inkorning buzilishi holatlari, shuningdek, ma’no jihatidan nozik farqlar misollar asosida tushuntiriladi. Maqolada Qur’on oyatlaridan, mumtoz arab she’riyatidan olingan namunalar asosida mavzu mustahkamlanib, “لا النافية للجنس” bilan “ليس” kabi amal qiluvchi “لا” o‘rtasidagi farqlar alohida ko‘rsatib beriladi. Ish talaba va o‘qituvchilar uchun nazariy hamda amaliy jihatdan foydali manba bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *arab tili nahvi, ليس fe’li, ما النافية (Hijoz lahjasi), لا المشبهة بليس, لات النافية, إنْ النافية, inkor yuklamalari, ismiy gap, mubtado va xabar, raf‘ va nasb, لا النافية للجنس, inkorning “إلا” bilan buzilishi, i‘rob tahlili, vaqt bildiruvchi otlar, Qur’oni Karim, mumtoz arab she’riyati.*

Abstract. *This article examines certain negative particles in Arabic—ma (in the Hijazi dialect), la, lat, and in—which, in some cases, function similarly to the verb laysa (“to be not”). The study explains the conditions required for each particle to operate in this way, their effects on grammatical inflection (i‘rab), and situations in which negation is nullified by illa (“except”). It also clarifies subtle semantic differences through illustrative examples. The topic is reinforced with examples drawn from Qur’anic verses and classical Arabic poetry. Additionally, the article highlights the distinctions between la al-nafiya li-l-jins and the la that functions like laysa. This work serves as a useful theoretical and practical resource for students and teachers.*

Keywords: *Arabic syntax (naḥw), the verb laysa, negative ma (Hijazi dialect), la resembling laysa, negative lat, negative in, particles of negation, nominal sentence, mubtada’ and khabar, nominative (raf‘) and accusative (naṣb), la al-nafiya li-l-jins, negation nullified by illa, i‘rab analysis, temporal nouns, the Holy Qur’an, classical Arabic poetry.*

Arab tili nahv ilmidagi muhim mavzulardan biri — “ليس” fe’lining amalini bajaradigan inkor yuklamalari masalasidir. Bu yuklamalar ayrim lahjalarda va muayyan shartlar asosida “ليس” fe’liga o‘xshab, ismiy gaplarda mubtadoni marfu‘, xabarni mansub holga keltiradi. Ushbu hodisa arab tili nahvining nozik jihatlaridan bo‘lib, ayniqsa Qur’oni Karim oyatlari, mumtoz adabiyot va she’riy matnlarni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada “ليس” fe’lining amalini bajaruvchi to‘rt xil yuklama: ما، لا، لات، إنْning nahviy vazifalari, ishlash shartlari hamda o‘zaro farqlari tizimli ravishda bayon qilinadi.

1. Hijoz lahjasida ishlatiladigan “ما” (inkor yuklamasi): Bu “ما” arab tilida “ليس” fe’li vazifasini bajaradi, ya’ni: ismni marfu‘ (rafa‘) holatda qoldiradi, xabarni mansub (nasb) holga keltiradi. Masalan: ما هذا بشرا Bu inson emas. (ya’ni: bu oddiy odam emas) ما الحقُّ ضائعًا Haqiqat yo‘qolgan emas. (ya’ni: haqiqat aslo zoye bo‘lmaydi) Uning “ليس” ma’n osida ishlashi uchun uchta shart mavjud: Xabar ismdan oldin kelmasligi kerak. Masalan: ما زيدٌ قائما (Zayd tik turgan emas.) Agar shu misolda xabarni oldinga qo‘ysak “ما” harfi “ليس” ning amalini bajarmasada

inkor ma’noni ifoda qilaveradi. Inkor “إلا” bilan buzilmasligi kerak. Agar gapda “إلا” kelsa, “ما” harfi “ليس” ma’noda bo‘lsada o‘z amalini yo‘qotadi ya’ni xabarni mansub qilmaydi, . Masalan: ما محمدٌ إلا رسولٌ (Muhammad faqatgina rasuldir.) “ما” dan keyin ortiqcha “إنْ” kelmasligi kerak. Agar “إنْ” kelsa, “ما” ning amali bekor bo‘ladi. Masalan: ما إنْ زيدٌ قائمٌ (Zayd tik turgan emas.) Bu yerda “ما” amal qilmaydi, “زيدٌ” va “قائمٌ” marfu‘ holatda qoladi[1].

2. “لا” yuklamasining “ليس” fe’li kabi amal qilishi: “لا” (inkor yuklamasi) ba’zi holatlarda “ليس” fe’li kabi amal qiladi, ya’ni u: mubtadoni raf‘ (marfu‘) holatda qoldiradi – bu uning *ismi* hisoblanadi; xabarni nasb (mansub) holatga keltiradi – bu uning *xabari* hisoblanadi. Masalan: لا كسولٌ ناجحًا — Dangasa kishi muvaffaqiyatli bo‘lmaydi.

“لا” ning “ليس” kabi ishlashi uchun ham uchta shart keladi: Uning ismi ham, xabari ham nakira (noaniq) bo‘lishi kerak. (ya’ni, ma’rifa bo‘lmasligi lozim). Masalan: لا أحدٌ غائبا Hech kim yo‘q (hech kim g‘oyib emas / hech kim kelmay qolmagan). Agar أحدٌ so‘zi atoqli qilinsa لا ning amali yuqoladi, shunda: لا زيدٌ طالبٌ deb raf’ o‘qiladi. Xabari ismidan oldin kelmasligi kerak. Masalan: لا أحدٌ حاضراً biron kishi kelgan emas, agar shu misoldagi xabarni egadan oldinga o‘tgazib لا حاضراً أحدٌ deb o‘qish to‘ri bo‘lmaydi. Uning inkori “إلا” bilan buzilmasligi kerak. Agar “إلا” kelsa, “لا” ning amali bekor bo‘ladi**.** لا طالبٌ إلا مجتهدٌ — Talaba faqat tirishqoq bo‘ladi. Bu gapda “إلا” sababli inkor buzilgan, shuning uchun “لا”ning “ليس” kabi amali bekor bo‘lgan.

Ma’no jihatidan farqi: Bu turdagi “لا” birlikni inkor qiladi, ya’ni bitta shaxs yoki bitta holatni rad etadi, jinsni (umumiylikni) inkor qilmaydi. Shuning uchun u “لا النافية للجنس” (butun jinsni inkor qiluvchi “لا”) dan farq qiladi. “لا النافية للجنس” esa “إنَّ” kabi amal qiladi (ismni mansub, xabarni marfu‘ qiladi).

“لا” ning turlari o‘rtasidagi farq “لا” harfi “ليس” kabi amal qiluvchi inkor yuklamasi bo‘lib, Mubtadoni marfu‘ qiladi, xabarni mansub qiladi**.** Birlikni inkor etadi**,** ya’ni bitta shaxs yoki bitta holatning mavjud emasligini bildiradi**.** “لا” – jinsni inkor qiluvchi yuklama (لا النافية للجنس) “إنَّ” kabi amal qiladi: mubtadoni mansub, xabarni marfu‘ qiladi. Butun jinsni to‘liq inkor etadi (umumiy inkor, istig‘roq ma’nosi). “لا النافية للجنس” da uning ismi ham, xabari ham nakira (noaniq) bo‘lishi shart, shuningdek, “لا” bilan uning ismi orasiga boshqa so‘z kirmasligi kerak. Masalan: لا طالب علم ممقوتٌ bironta tolibi ilm egasi yoqimsiz emas. Oddiy inkor “لا” da esa undan keyin keladigan ism nakira ham, ma’rifa ham bo‘lishi mumkin. Masalan: ، لا طالبٌ غنياً talaba boy emas, لا زيدٌ غنياً Zayd boy emas[2].

“لا” ning amal qilmay qolishi (ihmoli) ***Agar “لا” yuqorida aytilgan*** *shartlardan birortasini yo‘qotsa****, u holda*** *“لا” amal qilmaydigan (muhmal) bo‘lib qoladi****. Bu paytda undan keyingi so‘zlar*** *oddiy mubtado va xabar* ***sifatida i‘rob qilinadi.*** *Misollar:* ***لا طالبٌ في الفصلِ — Sinfda talaba yo‘q. (Bu yerda “لا” amal qilmayapti, “طالبٌ” – mubtado, “في الفصلِ” – xabar.)*** ***لا كريمٌ إلا محبوبٌ — Saxiy kishi faqat sevimlidir. (“إلا” sabab inkor buzilgan va “لا”ning amali bekor bo‘lgan.)***

3. “لات” inkor yuklamasi: “لات” — inkor yuklamasi bo‘lib, asl shakli “لا” hisoblanadi. Keyinchalik unga ta’ ta’nīs (ت) qo‘shilgan. Bu qo‘shimcha: yoki lafzni (tovush shaklini) muannas qilish uchun, yoki inkorni kuchaytirish (mubolag‘a) ma’nosida kelgan. Masalan, arablar: “فلانٌ علَّامةٌ” Faloncha alloma – deyishadi — bu ilmda mubolag‘ani bildiradi. “لات” ayrim hollarda “ليس” fe’li kabi amal qiladi, lekin buning uchun ikki shart mavjud: 1- Uning ismi ham,

[1] جامع الدروس العربية . مصطفى الغلاييني . مؤسسة الرسالة، – بيروت 2023. ص 446.
[2] قطر الندى و بل الصدى ، ابن هشام الأنصاري، دار الطلائع – القاهرة: 2009. ص 169.

xabari ham vaqt bildiruvchi ism bo‘lishi kerak, masalan: حين (payt), ساعة (soat/vaqt), **أوان** (fursat). 2- Uning ismi yoki xabari tushirib qoldirilgan bo‘lishi kerak, ko‘pincha ismi tushirib qoldiriladi. Shartlarga mos kelgan misol: فَنَادَوْا وَلَاتَ حِينَ مَنَاصٍ (Qur’oni Karim, Sod surasi, 3-oyat) Ma’nosi: Bas, ular nido qildilar, ammo qochib qutulish vaqti endi yo‘q edi.

I‘rob (grammatik tahlil) tarjimasi: فَنَادَوْا — “fa” bog‘lovchi harf; “نادوا” — o‘tgan zamon fe’li, bog‘langanligi sababli vov bilan kelgan; “vov” — ko‘plik egani bildiruvchi zamir. وَلاتَ — “vov” — hol ma’nosida; “لات” — inkor yuklamasi, fathaga mabniy, i‘rob o‘rni yo‘q; “ليس” kabi amal qiladi; uning ismi tushirib qoldirilgan, taxminan: “الحينُ” (hozirgi payt). حِينَ — “لات” ning xabari, mansub, nasb belgisi — ochiq fatha. مَناصٍ — mudof ilayh (qaratqich), majrur, jar belgisi — ochiq kasra.

Ma’no nozikligi (nega yashirin so‘z ma’rifa bo‘lishi kerak?): Bu yerda tushirib qoldirilgan so‘z ma’rifa (aniq) bo‘lishi zarur, chunki maqsad — hozirgi payt qochib qutulish vaqti emasligini inkor qilish. Ya’ni bu yerda “qochish payti” jinsini umumiy inkor qilish emas, balki aynan hozirgi lahzada qochish imkoni yo‘qligi nazarda tutilgan.

She’riy misol: Shoir aytadi: نَدِمَ البُغاةُ وَلَاتَ ساعةَ مَنْدَمٍ والبغيُ مَرْتَعُ مُبْتَغِيهِ وخِيمُ Tarjimasi: Zolimlar pushaymon bo‘ldilar, ammo pushaymon bo‘ladigan vaqt endi o‘tib ketgan edi; zulm esa unga intilganlar uchun yomon maskandir. Bu misolda ham: “لات”ning ismi tushirib qoldirilgan (taxminan: *السّاعةُ*— “o‘sha vaqt”), “ساعةَ” esa “لات”ning xabari bo‘lib, mansub holatda kelgan[3].

4. “إنْ” inkor yuklamasi va uning “ليس” kabi amal qilishi: “إنْ” inkor yuklamasi sukun bilan mabniy bo‘lgan harf bo‘lib, ba’zi nahv olimlari nazarida (xususan, Hijoz atrofidagi ayrim lahjalarda) “ليس” fe’li kabi amal qiladi**,** ya’ni: mubtadoni raf‘ (marfu‘) holatda qoldiradi — bu uning *ismi* deyiladi; xabarni nasb (mansub) holga keltiradi — bu uning *xabari* deyiladi. Bu ba’zi nahvchilar qarashi bo‘lib, boshqalari “إنْ” ni amal qilmaydigan deb hisoblashgan.

Ma’nosi va qo‘llanishi: inkorni bildiradi (ya’ni “ما” yoki “ليس” ma’nosida). Qo‘llanishi: asosan ismiy gap boshida keladi**.**

“إنْ” ning “ليس” kabi ishlashi uchun shartlar**:** Xabar ismidan oldin kelmasligi kerak. Masalan: إنْ حاكماً هو deb xabarni muqaddam qilish xato sanaladi. Inkor “إلا” bilan buzilmasligi kerak. Masalan: إنْ هو إلا حاكماً deb shu holda xabarni nasb qilib o‘qish ham xato hisoblanadi. “إلا” ishlatilsa, “إنْ” ning amali bekor bo‘lib, xabarni raf’ o‘qish kerak bo‘ladi[4].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, “ليس” fe’lining amalini bajaruvchi harflar arab tilida inkor ma’nosini ifodalashda muhim nahviy vosita hisoblanadi. ما (Hijoz lahjasida) — uchta shart bilan “ليس” kabi amal qiladi: xabar oldinga o‘tmasligi, “إلا” bilan inkor buzilmasligi, “ما” dan keyin ortiqcha “إنْ” kelmasligi. **لا** — ba’zi holatlarda “ليس” kabi amal qilib, birlikni inkor qiladi; u “ لا النافية للجنس” dan ma’no va amal jihatidan farqlanadi. لات — vaqt bildiruvchi so‘zlar bilan kelib, odatda ismi tushirib qoldirilgan holda ishlatiladi; bu Qur’oni Karim oyatlarida va she’riyatda uchraydi. **إنْ** — ayrim nahvchilarga ko‘ra “ليس” kabi amal qiladi, ammo bu qarash umumiy emas va qat’iy shartlarga bog‘liq. Bu qoidalarni puxta o‘zlashtirish ismiy gaplarning i‘robini to‘g‘ri anglash, Qur’on matnlarini va mumtoz adabiy namunalarni xatosiz tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, “إلا” bilan inkorning buzilishi va “لا النافية للجنس” bilan boshqa “لا” o‘rtasidagi farqni ajratish nahviy xatolarning oldini oladi.

---

[3] جامع الدروس العربية . مصطفى الغلاييني . مؤسسة الرسالة، – بيروت 2023. ص 445.

[4] شرح شذور الذهب في معرفة كلام العرب. ابن هشام الأنصاري. مؤسسة الرسالة، – بيروت 2019. ص 372.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sharhu ibn Aqil ala alfiyati ibni Molik. Bahouddin Abdulloh bin Abdurahmon bin Abdulloh bin Aqil. Birinchi jild. – Qohira: Dorut Turos, 2005.
2. An-Na'im. Arabcha o‘zbekcha lug‘at. – Toshkent: Xalq merosi, 2003.
3. Shuzuru-Azzahab fi ma'rifatil kalamil-arab. Abu Abdulloh Jamoliddin ibn Hishom Ansoriy. – Bayrut: Ar-Risola, 2019.
4. Qotrun-Nado va Ballus-Sado. Abu Abdulloh Jamoliddin ibn Hishom Ansoriy. – Qohira: Darut –Taloi', 2009.
5. Jomiu’ ad-Durus al-arabiya. Mustofa G‘oyalaniy. Bayrut: Ar-Risala, 2023.
6. https://mawdoo3.com/
7. https://bahethoarabia.com/laamallais/
8. https://loghate.com/